

**OG'IR TEXNIKANI
YANGI LIZINGGA BERISH SHARTNOMASI №__**

_____ shahar

“__” “__” 20__ yil

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank“ ATB (keyingi o‘rinlarda — “Lizing beruvchi” deb nomlanadi) nomidan “__” _____ 20__ yildagi №_____ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ filiali boshqaruvchisi/BXO boshlig‘i _____ bir tarafdin va “_____” mas’uliyati cheklangan jamiyati, quyida “Lizingga oluvchi” deb nomlanuvchi, ustav asosida harakatlanuvchi direktor ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar” deb nomlanuvchilar, ushbu og‘ir texnikaning Lizing shartnomasini (quyida “Shartnoma” deb nomlanuvchi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1-bob. Atamalar va tushunchalarning ta’rifi

Lizingga oluvchi – ushbu shartnomaning preambulasida ko‘rsatilgan, lizing obyektini egalik qilish va foydalanish uchun ushbu shartnomada ko‘rsatilgan shartlar asosida oluvchi tomon;

Lizingga beruvchi – “HAMKORBANK” ATB bo‘lib, ushbu Shartnomani amalga oshirish jarayonida, unda belgilangan shartlar asosida, Lizingga oluvchiga egalik qilish va undan foydalanish uchun lizingga berish maqsadida ushbu Shartnomada ko‘rsatilgan lizing obyektini Sotuvchidan sotib oladi;

OT – ushbu Shartnomaning 1-ilovasida ko‘rsatilgan va ushbu Shartnoma bo‘yicha lizing obyektini bo‘lgan og‘ir texnika;

Ariza – OTni sotib olish va lizingga topshirish uchun Lizingga oluvchi tomonidan Lizingga beruvchiga taqdim etilgan ariza;

Lizing to‘lovlari – Lizingga oluvchi tomonidan Lizingga beruvchiga to‘ladigan barcha to‘lovlari;

Lizing muddati – OTni Lizingga oluvchiga egalik qilish va foydalanish davri;

Lizingni boshlash sanasi – Lizing shartnomasi bo‘yicha OTni qabul qilish to‘g‘risidagi Dalolatnomani Lizingga oluvchi va Lizingga beruvchi o‘rtasida imzolangan sana;

Lizing obyektini qabul qilish muddati – yetti bank ish kuni;

Lizing haqqi(daromadi)- Lizing beruvchi va lizing oluvchi o‘rtasida kelishilgan ____ foiz stavkasi bo‘yicha hisoblangan daromad;

Penya – Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to‘laydigan va o‘tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka. Penyalar lizing beruvchi tomonidan ehson hayriya ishlariga sarf qilinadi;

Texnik reglamentga rioya etmaslik - Lizing obyektini ishlab chiqaruvchining zavod yo‘riqnomasi talablariga zid ravishda, belgilangan texnik quvvat yoki yuk me‘yorida ortiqcha ishlatish, shuningdek, motor va transmissiya moylarini, texnik suyuqliklarni hamda filtrlarni o‘z vaqtida almashtirmaslik;

O‘zboshimchalik bilan o‘zgartirish (modifikatsiya qilish) – Lizing beruvchi va ishlab chiqaruvchining yozma roziligisiz texnikaga qo‘shimcha qurilmalar o‘rnatish yoki ob‘yektning tuzilishini o‘zgartirish (modifikatsiya);

Isitish va sovitish qoidalariga amal qilmaslik – ishni boshlashdan oldin dvigatelni yetarlicha isitmaslik yoki o‘ta qizib ketgan (peregreiv) tizimni sovitmasdan ishlatishda davom etish.

2-bob. Shartnomaning predmeti

2.1. Lizingga beruvchi Lizingga oluvchining arizasiga muvofiq arizada ko'rsatilgan OTni o'z mulki sifatida Shartnoma shartlariga binoan Lizingga oluvchiga vaqtincha egalik qilish va foydalanish uchun quyidagi OTni to'liqligicha va ____ (____) miqdorda taqdim etadi: _____ modelda, _____ yilda ishlab chiqarilgan, turi: YENGIL _____, davlat raqami _____, dvigatel raqami _____, kuzov raqami _____, shassi raqami: _____, rangi: _____ (____), quvvat: _____ ot kuchiga ega, avtotransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish to'g'risida guvohnoma _____ IIBB YHHB RIB tomonidan _____ yilda berilgan _____ raqamli (1-ilova). Lizing oluvchi buning uchun ushbu shartnomada belgilangan lizing to'lovlarini to'laydi.

2.2. OT Lizingga oluvchi tomonidan mustaqil ravishda tanlangan. Lizingga beruvchi OTning modelini tanlash, uning texnik ko'rsatkichlari uchun, Lizingga oluvchining manfaatlariga va / yoki undan foydalanish maqsadlariga mos kelmasligi uchun javobgar emas.

2.3. Tomonlar Lizing muddatini TVni lizingga berish boshlangan sanadan ____ oy etib belgiladilar ya'ni 20 ____ yil ____ kuniga qadar.

2.4. Ushbu shartnoma yuzasidan lizing obyektining summasi _____ (____) *pul birligi*, lizing haqqi (daromad) _____ (____) *pul birligi*, tashkil qiladi. Umumiy to'lov miqdori _____ (____) *pul birligi* bo'lib, 3-ilova asosida to'lab boradi.

3-bob. Lizing obyektini topshirish va ro'yxatdan o'tkazish

3.1. OTni lizingga berish va qabul qilish OTni qabul qilish to'g'risidagi Dalolatnoma (4-ilovadagi shaklda) bilan amalga oshiriladi va rasmiylashtiriladi.

3.2. Lizingga oluvchi Shartnomaning 3-ilovasida ko'rsatilgan Jadval bo'yicha to'lovlarni amalga oshirishi sharti bilan OT Lizingga oluvchiga beriladi.

3.3. OTni qabul qilish to'g'risidagi Dalolatnoma uchta asl nusxada, Tomonlarning har biri va bittadan nusxada tuziladi va imzolanadi. Qabul qilish to'g'risidagi Dalolatnoma OTning to'liqligini, nuqsonlari yo'qligini va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga muvofiqligini hamda Lizingga oluvchining talablariga to'liq mos kelishini tasdiqlaydi.

3.4. Agar Lizingga oluvchi Lizingga beruvchi tomonidan belgilangan muddatda OTni qabul qilib olmasa, OTni qabul qilish muddati tugashi bilan Shartnoma bekor qilinishi mumkin. Bunday holda, Lizingga beruvchi OTni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etish huquqiga ega. Bunda OT boshqa shaxsga sotilsa Lizingga oluvchi tomonidan to'langan bo'nak Lizingga beruvchining OTni sotib olish va sotish narxlari o'rtasidagi farq va rasmiylashtirish bo'yicha barcha xarajatlari, jumladan davlat boji ushlab qolingan holda Lizingga oluvchiga qaytarib beriladi.

3.5. Lizingga oluvchi OTning davlat raqami, texnik pasporti va OT bilan bog'liq boshqa hujjatlarning saqlanishiga javobgardir. Lizingga oluvchi o'zining aybi bilan ularning yo'qotilishi yoki zararlanishi holatlarida ularni tiklash uchun Lizingga beruvchining barcha xarajatlarini aniqlangan paytdan boshlab besh bank ish kuni ichida qoplashni o'z zimmasiga oladi.

3.6. OT yo'l-transport hodisasiga uchraganda, Lizingga beruvchiga sudda uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni yoki yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalarni to'lash majburiyati yuklansa, Lizingga oluvchi Lizingga beruvchining bu kabi barcha xarajatlarini, shu jumladan, debet aylanmasi uchun bank xarajatlarini, ular yuzaga kelgan va aniqlangan paytdan boshlab besh bank ish kuni muddat ichida qoplashni o'z zimmasiga oladi.

3.7. Lizing obyekti Lizingga beruvchining roziligi bilan Lizingga oluvchining nomiga O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi organlarida qonunchilikda belgilangan tartibda 20 ____ yil ____ kuniga qadar vaqtinchalik davlat ro'yhatidan o'tkazilishi mumkin. Bunda mazkur shartnomani 5-ilovasida ko'zda tutilgan shartlar Lizing oluvchi tomonidan to'liq bajarilganidan so'ng mazkur shartnomaga asosan o'tkazib berilishi mumkin.

3.8. Mazkur shartnomaga asosan OT yetkazib berish Lizingga beruvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda Lizingga beruvchi Lizingga oluvchini o'zining vakili sifatida OT yetkazib berish uchun jalb qilishi mumkin.

4-bob. Taraflarning lizing obyektiga nisbatan huquqlari

4.1. Lizingga oluvchiga topshirilgan yoki vaqtincha lizingga oluvchini nomiga rasmiylashtirilgan/davlat ro'yxatidan o'tkazilgan OTga nisbatan mulk huquqi Lizingga beruvchiga tegishli.

4.2. Lizingga oluvchi OTga vaqtinchalik egalik qilish va undan foydalanish huquqini butun lizing muddati davomida oladi. Lizingga oluvchi OTni lizingga yoki foydalanishga berishga, o'zgartirishga, qayta jihozlashga, zamonaviylashtirishga yoki yo'q qilishga, shuningdek ushbu Shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini, majburiyatlarini yoki undan kelib chiqadigan har qanday manfaatlarni Lizingga beruvchining yozma rozilgisiz uchinchi shaxsga berish huquqiga ega emas. Lizingga oluvchi OTni garovga qo'yishi, xo'jalik yurituvchi jamiyatlar va shirkatlarning ustav fondiga ulush (hissa) yoki oddiy sheriklik (birgalikda faoliyat) ishtirokchisining hissasi sifatida kiritishi, yoki boshqa shaklda OTni begonalashtirishi taqiqlanadi.

4.3. Tomonlar o'rtasida OTni qabul qilish to'g'risidagi Dalolatnoma imzolangan paytdan boshlab, Lizingga oluvchi ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida OTning uning aybi bilan yuzaga kelgan har qanday yo'qotilishi yoki zararlanishi, shuningdek OTdan foydalanishda uchinchi shaxslarga va ularning mol-mulkiga yetkazilgan talofat yoki zarar uchun javobgar bo'ladi. Bunda Lizingga oluvchi zudlik bilan, lekin uch ish kundan kechiktirmay OTni yo'qotilishi (xalok bo'lishi) yoki buzilishi, shuningdek o'g'irlik, muddatidan oldin keskin eskirishi yoki OTning shikastlanishi, shu jumladan sodir bo'lgan yo'l-transport hodisasi to'g'risida Lizingga beruvchiga xabar beradi.

4.4. Lizingga oluvchining aybi bilan mol-mulki hibsga olingan yoki musodara qilingan taqdirda TV Lizingga oluvchining umumiy mulkidan ajratiladi va darhol Lizingga beruvchiga to'liq soz holatda qaytarilishi kerak. Agar TVni to'liq soz holatda qaytarib berishning iloji bo'lmasa, Lizingga oluvchi uchun TV hibsga olingan yoki musodara qilinguniga qadar o'tgan muddat bo'yicha lizing haqi miqdori to'laydi. Lizingga oluvchi TVning hibsga olingan yoki musodara qilingan kundagi baholovchi tashkilotlar tomonidan baholangan qiymatini to'liq to'lab beradi.

4.5. Lizingga beruvchi lizing objekti TVga qo'shimcha kuzatish moslamalari qo'yishga haqli va lizing to'lovlari belgilangan muddatlarda amalga oshirilmagan taqdirda tegishli tizimlar orqali TV ni harakatlarini cheklashi mumkin.

5-bob. Lizing obyektidan foydalanish va nazorat huquqi

5.1. Lizingga oluvchi OTga vijdonan egasi sifatida munosabatda bo'lishga majburdir. U o'z mablag'lari hisobidan OTdan foydalanish uchun barcha zarur litsenziyalarni, ruxsatnomalarni olish va amal qilishini ta'minlashi, ishlab chiqaruvchining foydalanish, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha barcha qoidalari, tavsiyalari va ko'rsatmalariga rioya qilishga majburdir. OTdan belgilangan maqsadga muvofiq foydalanish, davlat va boshqa vakolatli ma'muriy organlarning barcha qoidalari va ko'rsatmalariga, shuningdek lizingga berish muddati davomida amalda bo'lgan saqlash, foydalanish, tasarruf qilish va qaytarish bilan bog'liq qonun hujjatlariga, mahalliy hokimiyat organlarining qoidalariga va qarorlariga bo'ysunadi.

5.2. Lizingga oluvchi OTni yaxshi ish holatida saqlashga va o'z hisobidan uni joriy ta'mirlash (moy, filtr, kamarlar, kolodka, chiroqlar, akkumulyatorlarni almashtirish va shu kabilar), shuningdek OTni ishlatish, texnik xizmat ko'rsatish, egalik qilish va undan foydalanish bilan bog'liq barcha xarajatlarni olib borishga majbur.

5.3. Lizingga oluvchi OTning texnik holati va jihozlarini yo'l harakati xavfsizligi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, qoidalar, standartlar va texnik reglament talablariga muvofiqligini ta'minlashga majburdir. Lizingga oluvchi OTni o'z mablag'lari hisobidan majburiy davlat texnik ko'rikdan o'tkazish uchun vakolatli organlarga o'z vaqtida taqdim qilishga majburdir.

5.4. Lizingga oluvchi ishlab chiqaruvchining va lizing beruvchining yozma rozilgisiz OTni konstruktiv o'zgarishlari va takomillashtirishlarni (masalan, gaz uskunalari o'rnatish) amalga

oshirish huquqiga ega emas. Ushbu talab OTdan foydalanish sharoitlarini yaxshilaydigan erkin ajratib olinadigan qo'shimcha qurilmalar, moslamalar va aksessuarlarni o'rnatishga taalluqli emas, agar bu avtomobil ishlab chiqaruvchisi ko'rsatmalariga va tavsiyalariga zid bo'lmasa.

5.5. Ushbu Shartnoma muddati davomida Lizingga oluvchi OTning har qanday qismlarini va/yoki uskunalarini almashtirgan va ular ushbu OTning ajralmas qismi hisoblangan taqdirda bunday qism va uskunalar OT qaytarilgan taqdirda Lizingga beruvchiga o'tadi. Shartnoma bekor qilingan taqdirda, Lizingga oluvchi tomonidan amalga oshirilgan OTning ajralmas yaxshilanishlari qiymati Lizingga beruvchi tomonidan qoplanmaydi.

5.6. Lizingga oluvchi OTni O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida foydalanish huquqiga ega emas. Lizingga beruvchining yozma roziligi va lizing obyektining lizingga oluvchi tomonidan aloxida sug'urta qildirilish sharti bilan ruxsat berilishi mumkin.

5.7. Lizingga oluvchi Lizingga beruvchining so'roviga binoan, butun lizing muddati davomida OT bilan bog'liq bo'lgan qismida uchinchi shaxslar bilan munosabatlari to'g'risida Lizingga beruvchiga ma'lumot berishga majburdir.

5.8. Lizingga beruvchi Lizingga oluvchini xabardor qilgan holda OTning haqiqiy mavjudligini, holatini, foydalanish va saqlash sharoitlarini tekshirishga, OT bilan bog'liq Lizingga oluvchida mavjud hujjatlar bilan tanishishga haqli. Lizingga oluvchi OTning kutilayotgan tekshiruv vaqti va joylashuvi to'g'risida Lizingga beruvchining so'roviga binoan uni xabardor qilishi shart. Lizingga oluvchi ushbu Shartnoma shartlarini Lizingga oluvchi tomonidan to'g'ri bajarilishini nazorat qilish maqsadida Lizingga beruvchi tomonidan talab qilingan har qanday ishonchli ma'lumot, moliyaviy va boshqa hujjatlar yoki hisobotlarni tekshirish maqsadida taqdim etishi shart. Bunda Lizingga oluvchi maqsadli tekshiruvlar o'tkazish va OTning holatini baholash uchun Lizingga beruvchining vakolatli vakillarini OTni saqlash joyiga kiritishni o'z zimmasiga oladi.

5.9. Lizingga oluvchi o'z tashabbusi bilan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadigan yoki xavf tug'diradigan barcha holatlar to'g'risida Lizingga beruvchini darhol xabardor qilishi shart. Shu bilan birga, Lizingga oluvchi quyidagi ma'lumotlarni uch bank ish kuni ichida taqdim etishga majburdir:

- pochta manzilini o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar;

- yashash joyi yoki ro'yxatdan o'tgan joyi manzili o'zgarishi to'g'risida ma'lumot (jismoniy shaxslar uchun);

5.10. Shartnomaning amal qilish muddati davomida Lizingga oluvchi Lizingga beruvchining oldindan rozilgisiz uchinchi tomon bilan bajarilishi ushbu Shartnoma shartlariga zid bo'lishi yoki Lizingga oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini to'g'ri bajarishiga tahdid solishi mumkin bo'lgan hech qanday shartnomalar tuzmaydi.

5.11. Agar Lizingga oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha to'lov majburiyatlarini bajarmaslik holatlari mavjud bo'lsa, Lizingga beruvchi to'lov majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar bank tomonidan ushlab turishga haqlidir. Bunda OTsi vaqtincha olib qo'yilgan vaqt uchun Lizingga oluvchidan lizing haqi talab qilinmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksigamuvofiq, agar Lizingga oluvchi bitta va (yoki) ko'proq to'lovlarni to'lashda 30 (o'ttiz kun) va (yoki) ko'proq kalendar kun kechiktirgan bo'lsa, Lizingga beruvchi istalgan vaqtda har qanday usulda Lizingga oluvchining hisobiga (shu jumladan, Lizingga oluvchining rozilgisiz) Lizingga oluvchi hosil bo'lgan qarzdorlikni to'liq to'lamaguncha, Lizingga oluvchining TVdan foydalanish imkoniyatini cheklashga, shu jumladan Lizingga beruvchi TVga g'ildirak qulflarini (transport vositasini boshqarish imkoniyatini to'sib qo'yadigan boshqa texnik vositalarni) o'rnatishga, tegishli tizimlar orqali TV ga blok qo'yishga(harakatlanishiga taqiqi qo'yishga/masofadan o'chirib qo'yishga), texnik pasportlarni va transport vositasining kalitlarini olib qo'yishga, transport vositasidan foydalanish huquqini beruvchi ishonchnomani bermaslikka haqli. Lizingga beruvchi mustaqil ravishda, Lizingga oluvchining rozilgisiz, TVni egallashga, TVni o'zi uchun qulay bo'lgan har qanday joyga, shu jumladan maxsus texnik vositalar, evakuator va (yoki)

boshqa har qanday texnik vosita yordamida olib borish huquqiga ega va (yoki) TVni Lizingga oluvchi tomonidan qarzdorlikni to'liq to'laguniga qadar ushlab turishi mumkin.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan barcha harakatlar Lizingga beruvchi tomonidan Lizingga oluvchi hisobidan amalga oshiriladi.

Lizingga oluvchi OTni boshqarish imkoniyatidan mahrum qilish bilan bog'liq Lizingga beruvchining barcha xarajatlarini Lizingga beruvchi ushbu shartnomada ko'rsatilgan manzilga Lizingga beruvchining xarajatlarini qoplash zarurati to'g'risida tegishli e'tiroz xati yuborgan paytdan boshlab 10 (o'n) kundan kechiktirmay qoplashi shart.

6-bob. Lizing obyektini halok bo'lishi yoki zararlanishi

6.1. Lizingga oluvchining aybi bilan OT yo'qolishi (xalok bo'lishi, yo'q qilinishi, o'g'irlanishi, katta yoki tuzatib (tiklab) bo'lmaydigan darajada shikastlanishi) sodir bo'lgan taqdirda, u Lizingga beruvchiga ushbu Shartnoma bo'yicha Lizingga beruvchiga OTning yo'qolgan kundagi baholovchi tashkilotlar tomonidan baholangan qiymatini 30 kalendar kun ichida to'lashi shart. Agar Lizingga oluvchi TV yo'qolgan paytdan boshlab 30 kunda ko'rsatilgan pul mablag'ini to'lamagan bo'lsa, u har bir kechiktirilgan kun uchun to'lanmagan to'lovlar miqdorining 0,2% miqdorida, lekin to'lanmagan to'lovlarning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penyalarni hayriya ishlariga Lizingga beruvchini vakil qilgan holda to'lashga javobgar bo'ladi. Bunda undirilgan penya puli Lizingga beruvchi tomonidan xayriya ishlariga sarf etiladi.

6.2. OTga Lizingga oluvchining aybi bilan qisman zarar yetkazilgan taqdirda, Lizingga oluvchi sug'urta tovonini olish/olmasligidan qat'iy nazar, o'z mablag'lari hisobidan OT shikastlanishidan avvalgi holatga qadar va uning keyingi ishlashiga imkon beradigan holatiga keltirib ta'mirlashi (tiklashi) shart.

7-bob. Lizing obyektini saqlash, joriy va kapital ta'mirlash tartibi

7.1. Lizing oluvchi lizing muddati davomida lizing obyektini texnik jihatdan soz, but va ishga yaroqli holatda saqlash, undan to'g'ri foydalanish, joriy ta'mirlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, shuningdek sotuvchidan but olib kelishi, uning kafolat hujjatlarini qabul qilib olishi va saqlashi shart.

7.2. Lizing oluvchi lizingning obyekti ekspluatatsiyaga topshirilgandan so'ng kafolat shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi va kapital ta'mirlash ehtiyoji tug'ilganda sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi hisobidan qoplash choralarini ko'rishi lozim.

7.3. Lizing oluvchining aybi bilan (noto'g'ri foydalanish, zavod yo'riqnomasiga amal qilmaslik yoki hujjatlarni yo'qotish natijasida) zavod kafolati bekor qilingan taqdirda, Lizing obyektini joriy yoki kapital ta'mirlash bilan bog'liq barcha xarajatlar to'liq hajmda Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi.

7.4. Lizing obyektining texnik qo'llanmasiga muvofiq, lizing davri ichida majburiy tartibda o'tkazilishi ko'rsatilgan rejaviy kapital ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanadi. Ushbu qilingan kapital xarajatlar miqdoridan kelib chiqib, keying ijara to'lovlari Lizing oluvchining roziligi bilan keyingi davrlar uchun to'lanadigan lizing to'lovlari summasiga mutanosib ravishda oshiriladi.

7.5. Kafolat muddati tugaganidan so'ng kapital ta'mirlash uchun ehtiyoj mavjud bo'lsa, lizing oluvchi takofuul sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi.

7.7. Lizing predmetida kapital ta'mirlashni talab etuvchi nosozliklar yuzaga kelganda va bu holat sug'urta (takaful) kompaniyasi tomonidan sug'urta hodisasi deb tan olinmagan taqdirda, mazkur ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanadi. Buning uchun Lizing oluvchi texnik qo'llanma asosida obyektini ekspluatatsiya qoidalariga amal qilganligini asoslantirishi lozim.

7.8. Quyidagi holatlar Lizing oluvchi tomonidan Lizing obyektidan foydalanish va uni saqlash qoidalarini jiddiy ravishda buzish deb hisoblanadi. Mazkur holatlar oqibatida yuzaga kelgan har qanday kapital ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanmaydi va to'liq Lizing oluvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi:

Lizing obyektini ishlab chiqaruvchining zavod yo'riqnomasi talablariga zid ravishda, belgilangan texnik quvvat yoki yuk me'yorida ortiqcha (peregruzka bilan) ishlatish;

Belgilangan texnik reglamentga rioya etmaslik, shu jumladan motor va transmissiya moylarini, texnik suyuqliklarni hamda filtrlarni o'z vaqtida almashtirmaslik oqibatida dvigatel yoki boshqa asosiy tizimlarning ishdan chiqishiga yo'l qo'yish;

Lizing obyektini boshqarish uchun tegishli ruxsatnomasi, haydovchilik guvohnomasi yoki zaruriy malakasi bo'lmagan shaxslarga topshirish va buning natijasida obyektga shikast yetkazilishi;

Lizing oluvchi, uning ishonchli vakillari yoki xodimlari tomonidan Lizing obyektiga hamda uning butlovchi qismlariga qasddan zarar yetkazilishi;

Lizing obyektini boshqarayotgan shaxsning alkogol, giyohvandlik yoki toxic moddalar ta'sirida (mastlik holatida) bo'lishi oqibatida yo'l-transport hodisasi yoki boshqa turdagi avariya sodir etilishi;

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonida zavod-ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan, sifatli yoki soxta ehtiyot qismlar hamda moylash materiallarini ishlatish natijasida tizim va agregatlarning buzilishi;

Lizing beruvchining va ishlab chiqaruvchining oldindan berilgan yozma roziligisiz texnikaga qo'shimcha qurilmalar o'rnatish yoki uning konstruktiv tuzilishini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish (modifikatsiya qilish);

Lizing obyektida dastlabki nosozlik yoki xavf belgilari (nazorat panellarida xatolik chiroqlari yonishi, g'ayritabiiy shovqin/ovozlar kelishi, tutun chiqishi va boshqalar) paydo bo'lgan taqdirda ham ishlashni (harakatlanishni) to'xtatmasdan, zararning kattalashishiga sabab bo'lish;

Shartnoma yoki texnik qo'llanma shartlarini buzgan holda Lizing obyektini ochiq havoda, o'ta nam, o'ta issiq yoki o'ta sovuq muhitda tegishli muhofazalash va konservatsiya choralarini ko'rmasdan, himoyasiz qoldirish;

Lizing obyektining texnik imkoniyatlari va pasport ko'rsatkichlaridan tashqari bo'lgan o'ta og'ir tabiiy hamda iqlim sharoitlarida (chuqur suv havzalari, botqoqliklar, suriluvchi tuproqlar va b.) zaruriy xavfsizlik choralarisiz foydalanish;

Ishlab chiqaruvchining texnik yo'riqnomasida belgilangan isitish va sovitish qoidalariga amal qilmaslik, shu jumladan, ishni boshlashdan oldin dvigatelni yetarlicha isitmaslik yoki o'ta qizib ketgan (peregreva holatidagi) tizimni sovitmasdan ekspluatatsiya qilishni davom ettirish.

7.9. Joriy ta'mir xarajatlari aktivdan foydalanish jarayonida yuzaga kelsa, lizing oluvchi tomonidan mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

7.10. Kapital ta'mir xarajatlari yuqoridagi bandlar bo'yicha lizing oluvchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra lizing obyektiga kapital ta'mirlashga muhtoj bo'lganda ushbu kapital ta'mirlash xarajatlari lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

7.11. Lizing obyektiga lizing oluvchi tomonidan noto'g'ri ekspluatatsiya qilish natijasida kapital ta'mirlashga muhtoj bo'lgan taqdirda ushbu xarajatlar lizing oluvchi tomonidan amalga oshirishi lozim.

7.12. Kapital ta'mirlash xarajatlarning miqdori Lizing oluvchi taqdim etgan asoslantiruvchi hujjatlar (texnik diagnostika xulosasi, ta'mirlash smetasi, foto/video dalillar yoki vakolatli organ hujjatlari)

asosida Lizing beruvchi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Lizing beruvchi zaruratga ko‘ra ushbu nosozlikni tekshirish uchun mustaqil ekspert yoki baholovchini jalb etish huquqiga ega.

7.13. Tasdiqlangan kapital ta‘mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan bevosita pudratchiga beriladi yoki Lizing beruvchining oldindan berilgan yozma roziligi bilan Lizing oluvchi tomonidan to‘lanib, keyinchalik Lizing beruvchi tomonidan qoplab berilishi mumkin.

8-bob. Lizing to‘lovlari va hisob-kitob tartibi

8.1. Lizingga oluvchi tomonidan Lizingga beruvchiga to‘lanishi kerak bo‘lgan Lizing to‘lovlari, lizing muddatlari va to‘lovlar miqdorini belgilaydigan Lizing to‘lovlari jadvali (№ 3-ilova) bilan belgilanadi va 2.4-bandga muvofiq butun Lizing muddati uchun OTdan foydalanish xususiyati, darajasi va intensivligidan qat’iy nazar _____ (_____) *pul birligi* tashkil qiladi.

8.2. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o‘n) bank ish kuni davomida Lizingga oluvchi ushbu Shartnomaning 2-ilovasida ko‘rsatilgan miqdorda oldindan to‘lovni Lizingga beruvchining hisob raqamiga o‘tkazadi. Agar oldindan to‘lov avval tuzilgan dastlabki kelishuv bo‘yicha o‘tkazilgan bo‘lsa, u ushbu Shartnomaga hisobga olinadi. Oldindan to‘lov summasiga qo‘shimcha ravishda yoki oldindan to‘lov summasi o‘rniga quyidagi mulklarni taqdim qiladi

1).....

2).....

8.3. Lizing to‘lovlari OT lizingga berilgan kundan boshlanadi.

8.4. Lizing to‘lovlari amalga oshirilgan sana sifatida Lizingga beruvchining hisob raqamiga mablag‘ tushgan sana hisoblanadi.

8.5. Agar Lizingga beruvchining Lizing to‘lovlarini to‘lash muddati to‘g‘risida xabarnomasiga binoan to‘lovni to‘lash sanasi dam olish / bayram kuniga to‘g‘ri keladigan bo‘lsa, Lizingga oluvchi bu lizing to‘lovini jadvalda ko‘rsatilgan to‘lovni jadvalda ko‘rsatilgan to‘lash muddatidan keyingi ish kunida to‘laydi.

8.6. Ushbu Shartnoma bo‘yicha barcha to‘lovlar, agar Lizingga beruvchi va Lizingga oluvchi o‘rtasidagi kelishuv bilan boshqacha tartib belgilanmagan bo‘lsa, Lizingga oluvchi tomonidan naqd pulsiz shaklda Lizingga beruvchining bank hisob raqamiga pul o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Pul mablag‘larini o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasida (so‘m) amalga oshiriladi.

8.7. Lizingga oluvchining ushbu Shartnoma bo‘yicha amalga oshirgan har qanday to‘lovlari, ko‘rsatilgan to‘lov tafsilotlaridan qat’i nazar, Lizingga beruvchi tomonidan Lizingga oluvchining majburiyatlarini quyidagi ketma-ketlikda to‘lash uchun yuboriladi:

- birinchi navbatda, Lizingga beruvchining xarajatlari qoplanadi (yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun jarimalar, davlat bojlari, shartnomadan kelib chiqadigan penyalar, zararlar va boshqalar);

- ikkinchi navbatda, Lizing to‘lovlari bo‘yicha muddati o‘tgan to‘lovi qoplanadi;

- uchinchi o‘rinda Lizing to‘lovlari bo‘yicha navbatdagi to‘lovi qoplanadi.

8.8. Tomonlar har yili Shartnoma bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish dalolatnomasini tuzadilar. Dalolatnoma Lizingga beruvchi tomonidan tuziladi, imzolanadi va Lizingga oluvchiga yuboriladi. Agar Lizingga oluvchi ushbu Dalolatnomaga rozi bo‘lsa, uch bank ish kuni ichida uni imzolaydi va Lizingga beruvchiga yuboradi, rozi bo‘lmasa, Lizingga oluvchi besh kun ichida Dalolatnomani imzolashdan bosh tortishi sabablari to‘g‘risida yozma ravishda Lizingga beruvchiga xabar beradi. Zarurat bo‘lsa, o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish Dalolatnomasi istalgan vaqtda tuzilishi mumkin.

8.9. OTning kapital ta‘mirlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan sababga ko‘ra OTning ishlatishni imkoni bo‘lmay turib qolgan taqdirda, lizing muddati mutanosib ravishda uzaytiriladi. Bunda Lizingga

oluvchi OTdan foydalanmaslik vaqtini sababini ko'rsatgan holda Lizingga beruvchiga avvaldan xabar berishi shart.

8.10. Shartnoma bo'yicha Lizing to'lovlarining o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, Tomonlar bunday o'zgarishlar e'lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kun ichida Lizing to'lovlarining yangi Jadvalini kelishib olishlari va tasdiqlashlari mumkin.

9-bob. Shartnomani muddatidan avval to'xtatilishi yoki bekor qilinishi

9.1. Ushbu Shartnoma Tomonlarning kelishuvi bilan, shuningdek, Shartnomada nazarda tutilgan hollarda va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan hollarda uning amal qilish muddati tugashidan oldin bekor qilinishi mumkin.

9.2. Lizingga beruvchi tomonlar shartnomani jiddiy buzilishi deb tan olinadigan quyidagi hollarda bir tomonlama, suddan tashqari yoki sud tartibida ushbu Shartnomani o'zining zararlarini qoplab va Lizingga oluvchiga har qanday zararni qoplamasdan lizing obyektini qaytarib olib bekor qilishga haqli:

9.2.1. Quyidagi kichik bandlarda keltirilgan holatlar shartnomani jiddiy buzilishi hisoblanadi:

a). Agar Lizingga oluvchi TVdan ushbu Shartnoma shartlarini buzgan holda foydalansa va bu TVning holatini texnik holatiga tabiiy eskirishdan ko'ra ortiqcha zarar yetkazayotgan bo'lsa yoki Lizingga oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir qilishi mumkin bo'lsa;

b). Agar Lizingga oluvchi TVdan taksi sifatida, spirtli ichimliklarni tashishda foydalansa yoki uchinchi shaxslarga boshqarishga berib yuborsa va yoxud Lizingga beruvchining bunday harakatlarning tugashi to'g'risida yozma ogohlantirishiga qaramay davom ettirsa;

v). Agar Lizingga oluvchi ketma-ket ikki yoki undan ortiq marta Shartnomada belgilangan lizing to'lovi muddatida Shartnoma bo'yicha Lizing to'lovlarini amalga oshirmasa;

g). Lizingga oluvchi tomonidan lizing to'lovlari vaziyatidan qat'i nazar 12 oy davomida 3 marotabadan ortiq xolda kechiktirilib to'lanishi;

d). Lizing to'lovlari bo'yicha 60 kunlik qarzning mavjudligi;

y). Lizing oluvchi tomonidan lizing objekti lozim darajada saqlanmaganligi, ta'mirlanmaganligi va texnik xizmat ko'rsatilmaganligi;

o). Agar Lizingga oluvchi ushbu Shartnomaning 4.2., 5.4., 5.6., 5.7., 5.8., 5.9., 5.10., 5.11.-bandlarida ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki noto'g'ri bajargan bo'lsa.

10-bob. Lizing obyektini qaytarish shartlari va tartibi

10.1. Lizingga oluvchi tomonidan ushbu Shartnomaning 4.2., 5.4., 5.6., 5.7., 5.8., 5.9., 5.10. 5.11.-bandlarida ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini buzgan taqdirda yoki Tomonlar o'rtasida tuzilgan boshqa bitimlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda, OT Lizingga beruvchining talabiga binoan Lizingga oluvchi tomonidan Lizingga beruvchining tasarrufiga qaytarilishi kerak.

10.2. Lizingga oluvchi OTni qaytarish to'g'risida Lizingga beruvchining talabnomasini olganida, Lizingga oluvchi Lizingga beruvchining tanloviga binoan darhol OTni joylashgan joyida Lizingga beruvchining vakillariga topshirishga yoki talabnomani olgandan keyin uch kalendar kun davomida OTni, agar Lizingga beruvchining talabnomasida boshqa manzil ko'rsatilmagan bo'lsa, Lizingga beruvchining ushbu Shartnomada ko'rsatilgan manziliga yetkazib berishga majbur. OTning qaytarilishi Tomonlar imzolagan qaytarish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

10.3. OTni Lizingga oluvchidan qaytarib olish tartibi va asoslari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi normalariga va ushbu Shartnomaga muvofiq belgilanadi. Lizingga beruvchi ushbu shartnomada belgilangan shartlarni Lizingga oluvchi tomonidan buzilgan taqdirda, TVni Lizingga

oluvchidan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq sud orqali ariza yoki da'vo ariza berish buyruq tartibida yoki notariusning ijro xatiyozuviga muvofiq notarial tartibda so'zsiz da'vo qilish huquqiga ega.

10.4. Qaytarib olinayotgan yoki talab qilinayotgan OTni Lizingga beruvchi tomonidan saqlanadigan joyga yetkazish Lizingga oluvchi hisobidan amalga oshiriladi, OTni qaytarish Lizingga beruvchining aybdor harakatlari tufayli sodir bo'layotgan holat bundan mustasno.

10.5. OTning qaytarilishi yoki talab qilinishi, shu jumladan ushbu Shartnoma muddatidan oldin bekor qilinganda, Lizingga oluvchini ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni, shu jumladan muddati o'tgan va / yoki to'lanmagan Lizing to'lovlarini to'lash, ham OTga ham Lizingga beruvchiga yetkazilgan zararni to'liq qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

11-bob. So'zsiz tartibda olish huquqi

11.1. Quyidagi xollarda Lizing beruvchi Lizing oluvchining pul mablag'laridan lizing va boshqa to'lovlarini so'zsiz/aksepsiz ravishda yechib olishga rozilik beradi:

11.1.1. Lizing to'lovlari jadvalidan 1 kalendar kundan ortiq muddatga to'lov kechikishi natijasida lizing to'lovlarini;

11.1.2. ushbu Shartnomada ko'rsatilgan sabablarga ko'ra ushbu Shartnoma bekor qilinganidan keyin;

11.1.3. Lizingga oluvchining boshqa har qanday to'lovlar bo'yicha, shu jumladan Lizingga oluvchining aybi bilan OTga yetkazilgan zarar uchun Lizingga beruvchi oldida qarzdorligining yuzaga kelishi;

11.1.4. Lizing obyekti TV Lizing oluvchiga topshirilgan vaqtdan boshlab, Lizing obyekti TVdan foydalanish davomida IIB YHXB va boshqar orginlar tomonidan belgilangan jarimalar.

11.1.5. Ushbu Shartnoma va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

11.2. Lizingga oluvchining moliyaviy qobiliyati yomonlashgan yoki Lizingga beruvchining fikricha Lizingga oluvchining ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'g'ri bajara olishiga ta'sir etuvchi boshqa holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Lizingga beruvchi shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

11.3. Lizingga oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha Lizingga beruvchiga to'lanadigan Lizing to'lovlari yoki boshqa mablag'lar kechiktirilgan taqdirda (penyalar va boshqalar.), Lizingga beruvchi Lizingga oluvchining hisob varaqlariga xizmat ko'rsatuvchi har qanday bankda aksepsiz ravishda Lizingga oluvchining hisob varaqlaridan pul mablag'larini yechib olish huquqiga ega.

11.4. Lizingga oluvchining mablag'larini aksepsiz yechib olish Lizingga beruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi banklarida xizmat ko'rsatiladigan Lizingga oluvchining hisob varaqlariga aksepsiz to'lov talabnomasini berish yo'li bilan amalga oshiriladi.

11.5. Lizingga oluvchi ushbu shartnoma asosida o'ziga xizmat ko'rsatuvchi banklariga ushbu shartnomaning butun muddati davomida, ushbu shartnoma bo'yicha qarzni qaytarish uchun Lizingga beruvchining aksepsiz to'lov talablarini so'zsiz bajarishga vakolat beradi.

12-bob. Taraflarning javobgarligi

12.1. Lizingga beruvchi OT Lizingga oluvchining manfaatlariga mos kelmasligi uchun javobgar emas.

12.2. OTning sifati, to'liqligi va h.k. bilan bog'liq barcha da'volar kafolat shartlariga muvofiq Lizingga beruvchi tomonidan sotuvchiga taqdim etiladi.

12.3. Lizingga oluvchi OTni saqlash va / yoki undan foydalanish jarayonida uchinchi shaxslarga, mol-mulkka yoki atrof-muhitga yetkazilgan har qanday zarar yoki shikastlanish bo'yicha Lizingga beruvchiga qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha talablar va da'volar uchun javobgardir, faqat qonun hujjatlariga muvofiq bunday zarar va shikastlanish uchun Sotuvchi javobgar bo'lgan holatlar bundan mustasno. Shu bilan birga, Lizingga oluvchi uchinchi shaxslar tomonidan Lizingga beruvchiga taqdim etilgan va qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga muvofiq qondirilgan har qanday talablar va sud

xarajatlarini darhol to'lash majburiyatini oladi. Aks holda, Lizingga beruvchi sud ishlari bilan bog'liq xarajatlarini Lizingga oluvchidan undiradi.

12.4. Lizingga oluvchi tomonidan Lizing to'lovlarini to'lash jadvali bo'yicha to'lovlar kechiktirilgan taqdirda (№3 ilova), Lizingga oluvchi Lizingga beruvchiga to'lov to'liq to'lanmaguncha bo'lgan kechiktirilgan har bir kalendar kuni uchun qarzdorlikning 0,1% miqdorida, lekin to'lanmagan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdordagi mablag'ni hayriya ishlariga Lizingga beruvchini vakil qilgan holda to'lash majburiyatini oladi. Yuqorida ko'rsatilgan to'lovlar lizing beruvchi tomonidan faqatgina ehson maqsadlarida ishlatiladi

12.5. Ushbu Shartnomaning 4.2., 5.4., 5.6., 5.7., 5.8., 5.9., 5.10, 5.11.-bandlarida nazarda tutilgan shartlarni Lizingga oluvchi tomonidan bajarilmaganligi yoki o'z vaqtida bajarilmaganligi uchun Lizingga oluvchi Lizing to'lovlari Jadvalida nazarda tutilgan Lizing to'lovlarining umumiy miqdoridan 10% miqdorida penyalarni hayriya ishlariga Lizingga beruvchini vakil qilgan holda to'laydi (Shartnomaning 3-ilovasi). Penyani to'lash Lizingga oluvchini majburiyatni bajarishdan ozod qilmaydi.

12.6. Lizingga oluvchi tomonidan og'ir texnika, shuningdek ro'yxatga olish belgilari va hujjatlari o'z vaqtida qaytarib berilmagan taqdirda, ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq OTni qaytarib berishga majbur bo'lganda, Lizingga oluvchi OTni topshirish kechiktirilgan har bir kalendar kuni uchun OT narxining 0,5% miqdorida penya to'laydi, lekin 30% dan oshmasligi kerak. Bunda penyalar hayriya ishlariga Lizingga beruvchini vakil qilgan holda to'lanadi.

12.7. Lizingga oluvchi OTni joylashtirish, saqlash, foydalanish jarayonida shaxs yoki odamlar guruhiga yetkazilgan har qanday zarar yoki shikast uchun Lizingga beruvchiga qo'yilishi mumkin bo'lgan barcha talablar va da'volar, shu jumladan zararni qoplash, sud xarajatlari, advokat to'lovlari va boshqalar uchun javobgardir.

12.8. Ushbu moddada belgilangan penya miqdorini to'lash aybdor Tomonni majburiyatlarni bajarilmasligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyatidan ozod qilmaydi.

13-bob. Fors major

13.1. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari tomonlar oldindan ko'ra olmagan va oqilona choralar bilan to'sqinlik qila olmagan favqulodda holatlar natijasida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning natijasi bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadilar.

13.2. Favqulodda vaziyatlarga tomon ta'sir qila olmaydigan va uning sodir bo'lishi uchun u javobgar bo'lmagan voqealar kiradi, masalan: zilzila, suv toshqini, yong'in, shuningdek, ushbu Shartnoma predmetini bajarishga xalaqit beradigan har qanday xarakterdagi harbiy harakatlar, ish tashlashlar.

13.3. Favqulodda vaziyat yuz berganligini sabab qilib keltirayotgan Tomon, bunday holatlar yuz berganligi to'g'risida zudlik bilan boshqa Tomonga yozma ravishda xabar berishga majburdir va har qanday Tomonning talabiga binoan tegishli muassasa tomonidan berilgan bunday holatlar yuzaga kelganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi kerak.

14-bob. Nizolarni hal etish tartibi

14.1. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarish paytida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga intiladilar. Bunda, agar ushbu Shartnomaning tegishli moddalarida boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, tomonlarning ushbu Shartnomani amalga oshirish bilan bog'liq har qanday yozma e'tirozlarini ko'rib chiqish uchun 15 kunlik muddat belgilanadi.

14.2. Agar nizoni kelishuv yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmasa, nizo Lizingga beruvchining vakili sifatida lizing mablag'larini ajratgan UB XO/MB XO joylashgan joydagi tegishli iqtisodiy sudga hal etiladi.

14.3. Ushbu shartnoma doirasida Lizingga oluvchining qarzi yuzaga kelganida Lizingga oluvchidan qarzni undirish va lizing obyektini talab qilib olish uchun notariusning ijro xatiga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshirilishi mumkin. Bunda, notariusga Lizingga oluvchining qarzini tasdiqlovchi quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- qarzni undirish va/yoki lizing obyektini talab qilib olishni amalga oshirishga asos bo'ladigan lizing shartnomasining asl nusxasi;
- Lizingga oluvchining Lizingga beruvchi oldidagi qarzini tasdiqlaydigan ikki tomonlama taqqoslash dalolatnomasi;
- Lizingga oluvchining ogohlantirishni olganligi to'g'risidagi tilxati bilan birga qarzni qaytarish to'g'risida ogohlantirish xatining nusxasi.

15-bob. Boshqa qoidalar

15.1. Ushbu Shartnoma Tomonlar vakillari tomonidan imzolangan Tomonlarning yozma ravishdagi kelishuvi bilan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin.

15.2. Manzil yoki bank rekvizitlaridagi barcha o'zgarishlar borasida Shartnomaning Tomonlari 3 kun ichida bir-birlarini yozma ravishda xabardor qilishlari shart.

15.3. Ushbu Shartnoma, shuningdek Shartnoma bo'yicha Tomonlar bir-biriga yuborgan har qanday bildirishnoma yoki boshqa xabar yozma ravishda amalga oshirilishi kerak. Bunday bildirishnoma yoki xabar, agar u vakolatli shaxsning imzosi bilan tasdiqlangan bo'lsa va ushbu Shartnomada ko'rsatilgan manzil bo'yicha pochta, messenjer, ro'yxatdan o'tgan elektron pochta, Internet-messenjer orqali manzilga yetkazilgan bo'lsa, tegishli ravishda yuborilgan hisoblanadi.

15.4. Shartnoma O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tuziladi va rasmiylashtiriladi.

15.5. Ushbu Shartnoma Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar Shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarini to'liq bajargunicha amal qiladi.

15.6. Ushbu shartnoma to'rtta teng kuchga ega bo'lgan nusxada, tomonlarning har biri, notarial idora va yo'l harakati xavfsizligi organlari uchun bitta nusxada tuzilgan.

Lizingga beruvchi:

“HAMKORBANK” ATB

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

Lizingga oluvchi:

Korxona nomi

Manzili:

Pasport ma'lumotlari:

Telefon:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

20__ yil “__” ____ da tuzilgan

Og'ir texnikaning lizing
shartnomasiga №1 ilova

OTning texnik xususiyatlari

Og'ir texnika markasi	Soni	1 donasi bahosi (O'zR so'mi)	Umumiy qiymati (O'zR so'mi)
	__ dona		

JAMI	_____dona.	_____	
------	------------	-------	--

OTning umumiy qiymati
 (.....) so'mni tashkil qiladi.

Lizingga beruvchi:

“HAMKORBANK” ATB

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

Lizingga oluvchi:

Korxona nomi

Manzili:

Pasport ma'lumotlari:

Telefon:

STIR:

(FISH) _____
(imzo)

(FISH) _____
(imzo)

20 ____ yil “ ____ ” ____ da tuzilgan
Og‘ir texnikaning lizing
shartnomasiga №2 ilova

Bo‘nak to‘lovi jadvali

To‘lov nomi	Miqdori, so‘m	Sana
Bo‘nak to‘lovi		

JAMI:

Bo‘nak to‘lovi – (.....) so‘m.

Lizingga beruvchi:

“HAMKORBANK” ATB

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

Lizingga oluvchi:

Korxona nomi

Manzili:

Pasport ma’lumotlari:

Telefon:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

20 ____ yil “ ____ ” ____ da tuzilgan
Og‘ir texnikaning lizing
shartnomasiga №3 ilova

Lizing to‘lovlari jadvali (so‘mda)

№	Tulov kuni	Muddati o‘tadigan kun	Asosiy qarz to‘lov summasi	Lizing haqi (Daromadi ____%)	Jami to‘lov	Sundirilgungacha lizing qoldig‘i summasi	Sundirilgandan keyingi lizing qoldig‘i summasi
1	Bo‘nak to‘lov summasi. (Bo‘nak to‘lovi summasi lizing bo‘yicha birinchi to‘lov summasi sifatida qabul qilinadi)						
2							
3							
4							
	Jami		xxx	xxx	xxxx		

Jami: Lizing to‘lovlari

_____ **so‘m.**

Lizingga beruvchi:

“HAMKORBANK” ATB

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

Lizingga oluvchi:

Korxona nomi

Manzili:

Pasport ma’lumotlari:

Telefon:

STIR:

(FISH) _____

(imzo)

20____ yil “__” _____ da tuzilgan
Og‘ir texnikaning lizing
shartnomasiga №4 ilova

**Og‘ir texnikani qabul qilish to‘g‘risidagi
Dalolatnoma**

Toshkent sh.

20____ y. ____

“HAMKORBANK” ATB, quyida “Lizingga beruvchi” deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakatlanuvchi boshqaruv raisi _____ siymosida bir tomondan va

_____ (STIR _____, passport seriyasi _____
№ _____, _____ tomonidan
_____ yilda _____ berilgan,
_____ da doimiy ro‘yxatda

turadi), quyida **“Lizingga oluvchi”** deb nomlanuvchi, ikkinchi tomondan,

birgalikda “Tomonlar” deb nomlanuvchilar, ushbu og‘ir texnikani qabul qilish Dalolatnomasini quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

Lizingga beruvchi 20____ yil ____ da Tomonlar o‘rtasida tuzilgan og‘ir texnikani lizing shartnomasi asosida quyidagi og‘ir texnikani Lizingga oluvchiga topshiradi, Lizingga oluvchi esa ushbu og‘ir texnikani qabul qilib oladi.

..... modeli, _____ yilda ishlab chiqarilgan, turi:, davlat raqami
_____, dvigatel raqami _____, kuzov raqami
_____, shassi raqami: _____, rangi: _____, quvvat: _____ ot
kuchiga ega, og‘ir texnikani ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida guvohnoma _____ IIBB
YHHB RIB tomonidan _____ yilda berilgan _____ raqamli

Biz, quyida imzo chekuvchilar lizingga topshirilayotgan og‘ir texnika ishchi holatda va barcha texnik talablarga javob berishini tasdiqlaymiz, Lizingga oluvchining og‘ir texnikaning holati bo‘yicha xech qanday e‘tirozlari yo‘q.

Lizingga beruvchi:

“HAMKORBANK” ATB

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

(FISH) _____
(imzo)

Lizingga oluvchi:

Korxona nomi

Manzili:

Pasport ma’lumotlari:

Telefon:

STIR:

(FISH) _____
(imzo)

20__ yil “__” ____ da tuzilgan
Og‘ir texnikaning lizing
shartnomasiga №5 ilova

**Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqining
Lizingga oluvchiga o‘tishi shartlari**

1. Lizing muddati tugagandan so‘ng va Lizingga oluvchining Shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlari bajarilgandan so‘ng, OT tomonlar o‘rtasidagi alohida va‘dalashuv kelishuviga muvofiq Lizingga oluvchining mulkiga berilish mumkin.

Lizingga oluvchi barcha lizing va boshqa to‘lovlarni, shu jumladan Lizingga beruvchining zararlari va Lizing to‘lovlarini o‘z vaqtida to‘lamaganligi uchun hisoblangan penyalar, ushbu Shartnoma bo‘yicha Lizingga oluvchi tomonidan o‘z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun belgilangan penyalar to‘liq to‘langandan so‘ng, OT tomonlar o‘rtasidagi alohida va‘dalashuv kelishuviga muvofiq Lizingga oluvchining mulkiga o‘tkaziladi. Mulk huquqini o‘tkazish OTni mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

2. OTni mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan ikkita asl nusxada, Tomonlarning har biri uchun bitta nusxadan tuziladi va imzolanadi.

3. OTni mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasini imzolagandan so‘ng, Tomonlar Lizingga oluvchi joylashgan joydagi vakolatli organlarda OTga nisbatan mulk huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur choralarni ko‘rishlari shart. Bunda Lizingga beruvchi tegishli organga OTga nisbatan mulk huquqining Lizingga oluvchiga o‘tganligini yozma tasdiqnomasini topshirishi shart.

4. Lizingga oluvchi barcha lizing va boshqa to‘lovlarni to‘lagandan so‘ng, u Respublika yo‘l jamg‘armasiga to‘lovni O‘zbekiston Respublikasida o‘sha paytda belgilangan stavkalar bo‘yicha to‘lashi shartligi to‘g‘risida xabardor, hamda Lizingga oluvchi YHHB organlarida OTni qayta ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlarini ham o‘z zimmasiga oladi.

5. OTga nisbatan mulk huquqi ushbu Shartnoma muddati tugashidan avval alohida kelishuv asosida quyidagi shartlarda Lizingga oluvchiga o‘tishi mumkin:

5.1. Lizingning o‘tgan muddati 13 oydan ko‘proq;

5.2. Lizingga oluvchi quyidagilarni to‘lovini amalga oshirgan:

- lizingning o‘tgan muddati uchun jami Lizing to‘lovlarini (Shartnomaning 3-ilovasi);

- Lizingga oluvchining ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan penya va Lizingga beruvchining zararlari miqdori;

5.3. Lizingga oluvchi OTga nisbatan mulk huquqini muddatidan avval olish niyati to‘g‘risida Lizingga beruvchiga OTga nisbatan mulk xuquqini olish uchun rejalashtirilgan kundan kamida 10 kun oldin yozma ravishda xabar beradi. Agar Lizingga oluvchi yuqoridagi shartlarni bajargan bo‘lsa, Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni solishtirish to‘g‘risidagi Dalolatnomani tuzadilar va OTni Lizingga oluvchining mulki sifatida qabul qilish Dalolatnomasi imzolanadi.

Lizingga berilgan og‘ir texnikani topshirish bo‘yicha dastlabki kelishuv (va‘dalashuv) №

_____ sh.

202__ yil “...”

“HAMKORBANK” aksiyadorlik tijorat banki, quyida **“Lizingga beruvchi”** deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakterlanuvchi _____ siymosida bir tomondan va “_____” **mas’uliyati cheklangan jamiyati**, quyida **“Lizingga oluvchi”** deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakterlanuvchi direktor siymosida ikkinchi tomondan birgalikda **“Tomonlar”** deb nomlanuvchilar, ushbu yangi lizingga berilgan og‘ir texnikani topshirish va’dasini berish to‘g‘risidagi dastlabki kelishuvni (quyida **“Kelishuv”** deb nomlanuvchi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

1. Lizingga beruvchi quyidagi og‘ir texnika bo‘yicha Lizingga oluvchi bilan tuzilgan yangi lizing shartnomasi muddati tugagandan va barcha to‘lovlar amalga oshirilgandan so‘ng, og‘ir texnikani Lizingga oluvchining mulkiga o‘tkazib berish va’dasini beradi.

Og‘ir texnikaning nomi	soni	Qiymati (O‘zR so‘mi)
Jami		

2. Lizingga oluvchi ushbu og‘ir texnikani Lizingga beruvchidan qabul qilib olishni rad etish xuquqiga ega.
3. Mulk huquqini o‘tkazish og‘ir texnikani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.. Og‘ir texnikani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan ikkita asl nusxada, Tomonlarning har biri uchun bitta nusxadan tuziladi va imzolanadi.
4. Og‘ir texnikani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasini imzolagandan so‘ng, Tomonlar Lizingga oluvchi joylashgan joydagi vakolatli organlarda Og‘ir texnikaga nisbatan mulk huquqini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun zarur choralarni ko‘rishlari shart. Bunda Lizingga beruvchi tegishli organga Og‘ir texnikaga nisbatan mulk huquqining Lizingga oluvchiga o‘tganligini yozma tasdiqnomasini topshirishi shart.
5. Ushbu Kelishuv tomonlar imzolangan vaqtdan kuchga kiradi.
6. Ushbu Kelishuv ikkita teng kuchga ega bo‘lgan nusxada, tomonlarning har biri uchun bitta nusxada tuzilgan.

**Tomonlar manzillari, bank hisob raqamlari ma’lumotlari
va imzolari:**

Lizingga beruvchi: “HAMKORBANK” ATB Yuridik manzil: Tel: H/r: MFO: STIR: _____ <i>(imzo)</i> M.P.	Lizingga oluvchi: “_____” MCHJ Yuridik manzil: Tel: H/r: MFO: STIR: _____ <i>(imzo)</i> M.P.
--	---